

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI AXBOROTLAR BILAN
ISHLASH KOMPETENSIYALARINI MANTIQIY FIKRLASH
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Allambergenova Gulimxan Muxtarbayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Matematika o‘qitish metodikasi kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, oliv ta'limga dargoxlarida talabalarni axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini mantiqiy fikrlash asosida takomillashtirish usullari to‘g‘risida so‘z yurutilgan.

Kalit so‘zlar: axborot tizimi, texnologiya, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, talaba, mahorat, mantiqiy fikrlash.

ABSTRACT

This article talks about ways to improve students’ information processing skills based on logical thinking in higher education institutions.

Key words: *information system, technology, competence, knowledge, method, student, skill, logical thinking.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о способах совершенствования навыков обработки информации у студентов на основе логического мышления в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *информационная система, технология, компетентность, знания, метод, обучающийся, умение, логическое мышление.*

Oxirgi o‘n yillikda oliy ta’lim muassasalarida ta’limni axborotlashtirish va ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida va ushbu mavzu haqida ko‘plab amaliy-ilmiy anjumanlarda, dissertatsiyalarda ko‘rib chiqilmoqda. Axborot bilan ishslash kompetensiyasi o‘quv jarayonining mahsuli sifatida bizga ma’lum bo‘lgan ko‘plab omillar mavjud, ularga, axborot qidirish, qayta ishslash, saqlash, to‘plash, tizimlashtirish, taqdim etish usullarini qayta ishslash va bilimga aylantirishning zamonaviy turlari bo‘yicha bilimlar, bularning barchasi sifat jihatidan yangi bilimlar ham deb ataladi. Bugungi kunda, hukumatimizning ta’lim tizimida axborotlar bilan ishslash savodxonligini oshirish masalasi keng ko‘lamda anjumanlarda o‘rtaga qo‘yilyotgani ham sir emas albatta. Bunga sabab, davlatimizda axborotlar bilan ishslash kompetensiyasini yanada takomillashtirishdir.

Asosiy fiklardan biri shuki, talabalarda kompetensiya sifat darajasini oshirish uchun mantiqiy fikrlash darajasini oshirishimiz lozim. Hozirgi davr talabalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak talaba va kadrlarda mana shunday kompetensiyaviylikni yanada rivojlantirish uchun mantiqiy fikrlashni mustahkamlash zarur, ushbu rejani amalga oshirishda bizga doimo tajribali kadrlar kerak bo‘ladi. Talabani har qanday mavzu bo‘yicha mantiqiy hayolotini, fikrlashini oshirida unga kitoblar yordam beradi. Kitob doim insonning do‘sti hisoblangan, shu sababli mantiqiy fiklashda ko‘p mutolaa qiluvchi shaxslar qiyinchilikga uchramaydilar.

Axborotlar almashinuvi davrida har bir inson axborotlarni qay tarzda almashish turlari mavjudligini, ularning turlari haqida bilishlari lozim. Axborot bilan ishslash oddiy qilib aytganda tabiatda uchraydigan hodisalar ekanligi barchamizga ma’lum, hid bilishda hidlayotgan obyektingiz sizga axborot uzatuvchi sifatida, burningiz va tilingiz uni qabul qiluvchi sifatida, miyya neyronlari esa axborotni yetkazuvchi eng muhim to‘qimalardur. Dunyoviy bilimlarga tayanadigan bo‘lsak, barcha texnologik qurilmalarning maketlari, ularning tuzulishi tabiiy borliqda mavjud bo‘lgan obyektlardan olinadi. Yaqin yillarda yaratilayotgan robotlarda insonda mavjud salohiyatlar aksetmoqda, ungacha inson sezgilariga o‘xhash omillar kichik datchik qurilmalarida mavjud bo‘lgan. Robotlar ko‘pincha inson qiyofasiga o‘xhash

shamoyilda yaratiladi, ana shunday texnikalarni yaratishda yaratuvchi texniklar doimo mantiqiy borliqga yuzlanadilar, mantiqiy fikrlash nafaqat aniq fanlarda balki falsafiy jihatni yuqori bo‘lgan fanlarda ham juda as qotadi.

Axborot bilan ishlash tizimi jadal shakllanayotgan bir davrda talabalarni ham shunga yarasha jalgan etish zarur. Axborot jamiyatining asosiy talabi, eng avvalo, axborotni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va jamiyat a’zolariga yetkazish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratishdir. Bu borada jamiyatning faol tashkilotchilaridan biri, shubhasiz, talabalar uchun axborot bilan ishlash tizimini to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar “axborot tizimlari”dan foydalanish natijasida shakllanadi. Kompetensiyani shakllantirish doim muhim pedagogik muammolardan biri bo‘lib kelgan, uni hal etish uchun kadrlar doimiy izlanishda bo‘lganlar.

Talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ijodiy yaratuvchanlik xarakteriga ega bo‘lib, ularni muntazam faollikka undab turadi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin. O‘quvchilarda kompetensiyalardan foydalanish tajribasini hosil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Sababi o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o‘qituvchilar tomonidan tanlanadigan ikkilamchi loyihalar tarkibiga kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari, ta’limiy topshiriqlarni kiritish, raqamli didaktik vositalarni ishlab chiqishga xuddi shu nuqtai nazardan yondashish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mantiqiy fikrlash kompetentlik yondashuv doirasida ta’lim natijalari va uning muhim jihatlari aniq bilim, ko‘nikma va malaka darajasi bilan uyg‘unlashtirilib, kompetensiyalar majmui – qobiliyatlar shakllanadi. Bu talabalarga jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Kompetentsiya yondashuvida o‘quvchi shaxsi jarayonning markaziga qo‘yilib, uning rivojlanish holatlaridagi roli yaqqol namoyon bo‘ladi.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kungacha "kompetentlik" va "kompetentlik" tushunchalarini tavsiflovchi yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentsiyalarni tushunish va tavsiflashda kompetentsiya o'quvchi bilan bog'liq, garchi u bilim, ko'nikma, malaka mahsuli bo'lsa-da, uning tarkibiy qismi emas, degan qarash ilgari suriladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, mantiqiy nuqtai nazaridan qaraganda, kompetensiya ta'lismazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular: davlat ta'lism standartlari; bitiruvchi talabalarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar; u shaxsning tayyorgarligini ta'minlovchi, bilim, ko'nikma va malakalar majmuini ifodalovchi, shaxsiy tajribasining bir qismi bo'lgan va ular uchun muhim bo'lgan normalardan iborat. Kompetensiya kompetensiyalarni egallashni bildiradi va talabaning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga shaxsiy munosabatini hamda real ta'lismdarajasini o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi —Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming Davlat ta'lism standartlarini tasdiqlash to'g'risida 187-sod Qarori // www.lex.uz
2. Boshlang'ich ta'lism konsepsiysi // tuzuvchilar: R.G.Safarova va boshq.-Toshkent: RTM-2015. O'zMU xabarlari - 183 - Falsafa fanlari
3. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании // Интернет-журнал "Эйдос". - 2005. - 10 сентября. - <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>. - В надзаг: Центр дистанционного образования "Эйдос", e-mail: list@eidos.ru.
4. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T.: Ta'lism markazi, 1999.
5. Egamberdiyeva N. M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009. - 135 b.